



## KIBERJINOYATCHILIK

*Omonova Mohinur Bahodir qizi*

*Toshkent davlat yuridik universiteti “Ommaviy axborot vositalari huquqi”  
yo’nalishi magistranti.*

### **Annotatsiya:**

Ushbu ilmiy maqolada kiberjinoyatchilikka huquqiy baho berilib, yaqin yillarda kiberhujum, umuman kiberjinoyatlarining yurtimizda qanchalik darajada oshganini, shuningdek, statistik ma’lumotlarga qaraganda eng ko’p kiberhujumga uchraydigan davlatlardan biri AQSh hamda yurtimiz O’zbekistonning kiberxavfsizlik huquqi o’zaro taqqoslanib, tahlil qilish maqsad qilib olingan.

**Kalit so’zlar:** kiberjinoyatchilik, kibernakon, Kiberxavfsizlik markazi

### **Annotation:**

In this scientific article, assessing cybercrime legally, it is aimed to analyze the increase of cyber attacks and cybercrimes in our country in recent years, as well as the comparison between the cyber security law of the USA, one of the most cyberattacked countries according to statistics, and our country, Uzbekistan.

**Key words:** cybercrime, cyberspace, Cybersecurity Center

### **Абстракт:**

В данной научной статье дается правовая оценка киберпреступности и степени увеличения кибератак и киберпреступлений в целом в нашей стране за последние годы, а также сравнение и анализ закона о кибербезопасности США, одного из страны, наиболее часто подвергающиеся кибератакам по статистике, и наша страна Узбекистан.

**Ключевые слова:** киберпреступность, киберпространство, Центр кибербезопасности.

### **Kirish**

Hozirgi globallashuv zamonida texnologiyalarning, jumladan kompyuter, boshqaruv qurilmalarining, shuningdek ularning ichki dasturlarining jadal taraqqiyotiga guvoh bo’lmoqdamiz. Bu kabi texnika va dasturlar taraqqiyotining maqsadi inson hayotini yengillashtirishga xizmat qilishdir. Biroq shunday dasturlar yoki inson onggi bilan o’ylab topilgan shunday yo’llar borki, ular orqali insonlar o’g’rilik, tovlamachilik, tahdidlar, bir so’z bilan aytganda, kiberjinoyatlar sodir qilmoqda. Kiberjinoyatchilikka qonunda shunday ta’rif berilgan:



**Kiberjinoyatchilik** — axborotni egallash, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibernakonda dasturiy ta‘minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig‘indisi<sup>1</sup>.

Ushbu maqola aynan kiberjinoyatlarning hozirgi kunda naqadar ildiz otib kurtaklanayotgani, shuningdek, kiberjinoyat xavfidan insonlarni qanday himoya qilish yo‘llarini topishga bag‘ishlangan.

### **Metodologiya**

Ushbu maqolada keng qamrovli adabiyotlar ko‘rib chiqildi hamda tahlil qilindi. Qonun hujjatlaridan 2022-yil 25-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuni o‘rganilib tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida kiberxavfsizlikka oid statistikalar maqolalardan umumlashtirilib tahlil qilindi va bunda umumlashtirish metodidan foydalanildi. Qiyosiy tahlil sintez metodidan foydalanib, AQSh va O‘zbekiston Respublikasida kiberhujumlar soni hamda bu ikki davlatning huquqiy jihatlari solishtirilib, o‘rganildi. Bundan tashqari bu ikki davlat qonun hujjatlarining sifat tahlili o‘tkazildi.

### **Natija**

Yigirma birinchi asr – globallashuv asrida yer yuzida kiberjinoyatlar yildan-yilga o‘tib borayotgani kuzatilmoqda va bu jinoyat turi allaqachon davlatlarning tashvishiga sabab bo‘lmoqda.

Tadqiqotlar natijasida ma‘lum bo‘lishicha, kiberhujumlarning ko‘pligi o‘sha mamlakatning internetdan qanchalik ko‘p foydalanishiga, shuningdek, iqtisodiyoti va aholisining ko‘pligiga bog‘liq ekan. Bundan tashqari, siyosiy sabablar ham kiberhujumlarga asosiy omillardan ekanligi aytib o‘tilgan<sup>2</sup>.

Bu kabi kiberjinoyatlardan O‘zbekiston ham chetda qolgani yo‘q. 2022-yil yozida Kiberxavfsizlik markazi rahbari Begzod Mamajonov so‘nggi uch yilda kiberjinoyatlar soni 8,3 baravarga oshganini e‘tirof etdi. Statistik ma‘lumotlarga qaraganda, o‘g‘rilik yigirma barobar, firibgarlik o‘n uch barobar, haqorat qilish hamda birovga tuhmat qilish singari jinoyatlar 4,9 barobarga ortgani aniqlandi<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>

<sup>2</sup> The Top 10 Countries Most Targeted by Cyberattacks // <https://blogs.blackberry.com/en/2023/02/top-10-countries-most-targeted-by-cyberattacks-2023-report>

<sup>3</sup> Toshkentda kiberjinoyatlar soni 2 yil ichida 40 barobarga oshdi // <https://kun.uz/uz/news/2023/06/27/toshkentda-kiberjinoyatlar-soni-2-yil-ichida-40-barobarga-oshdi>



Xususan, Toshkentda fuqarolarning bank kartalaridagi pullarini aldov yo'llari bilan o'zlashtirish holatlari keskin ortib ketgan. Ayni shu yillarda bunday kiberjinoyatlar oqibatida toshkentliklar kamida 45,2 mlrd so'm pulini yo'qotgan. Bu pullarning bor-yo'g'i 9,2 mlrd so'mga yaqini undirib berilgan<sup>4</sup>.

2021-yil internet tarmog'ida 17 097 478 zararli va shubhali tarmoq faolliklar aniqlandi. Ularning eng katta qismi bot-tarmoq ishtirokchilaridir.

Shu yili 1 354 106 ta veb sahifalarga qilingan hujumlar aniqlanib, bartaraf qilindi.

2021-yil statistikasiga ko'ra O'zbekistonga qilingan eng ko'p kiberhujumlar O'zbekistonning o'zi tomonidan (ya'ni O'zbekistonlik xakerlar, fuqarolar tomonidan), shuningdek, Rossiya, Germaniya va AQSh tomonidan sodir etilgan. Buni raqamlarda ko'radigan bo'lsak:

1136926 tasi O'zbekiston (ya'ni O'zbekistonlik xakerlar, fuqarolar tomonidan); 94654 tasi Rossiya hisobiga; 19492 tasi Germaniya hisobiga; 15119 tasi Buyuk Britaniya hisobiga; 14070 tasi AQSh hisobiga; 9589 tasi Finlandiya hisobiga; 8890 tasi Bolgariya hisobiga to'g'ri kelgan<sup>5</sup>.

Bu raqamlar ham kiberhujumlarning soni oshib borayotganining isbotidir. Biroq quvonarlisi 2021-yilda hukumatga, davlat korxonalariga hamda xususiy korxonalariga tegishli kompyuter tarmoqlaridagi ba'zi kamchiliklar bartaraf etilgani bois kiberhujumlar 2020-yilgidan yigirma foiz kam bo'lganini, kibertahdidlar bartaraf etilganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa qilinayotgan ishlarning samarasi isbotidir<sup>6</sup>.

2022-yilda 50 dan ortiq xorijiy mamlakatlar hududlaridan, asosan Gonkong, AQSh, Rossiya, Hindiston xakerlari tomonidan yil hisobida 4510318 ta kiberxavfsizlikka tahdidlar uyushtirilgan. Quvonarlisi bu xakerlarning hujumi tezda aniqlangan va bartaraf etilgan. Bunga sabab shu yilda davlat organlari va veb-resurslarni himoya qilishga yo'naltirilgan yangi tizim - Web Application Firewall tizimining o'rnatilishi bo'ldi<sup>7</sup>.

<sup>4</sup> Toshkentda kiberjinoyatlar soni 2 yil ichida 40 barobarga oshdi//

<https://kun.uz/uz/news/2023/06/27/toshkentda-kiberjinoyatlar-soni-2-yil-ichida-40-barobarga-oshdi>

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlikni ta'minlash 2021-yil hisoboti. Toshkent, 2022. b-2.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlikni ta'minlash 2021-yil hisoboti. Toshkent, 2022. b-3.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlikni ta'minlash 2022-yil hisoboti. Toshkent, 2022. b-5.



AQShdagi vaziyatga nazar tashlasak, AQSH ham kiberjinoyatlardan eng ko'p jabr ko'radigan davlatlardan biri hisoblanadi. Ularning tadqiqot qilishicha, kiberhujumlarning ko'pligi o'sha mamlakatning internetdan qanchalik ko'p foydalanishiga, shuningdek, iqtisodiyoti va aholisining ko'pligiga bog'liq ekan. Bundan tashqari, siyosiy sabablar ham kiberhujumlarga asosiy omillardan sanaladi.

Har yili kamida 89.7% AQShdagi tashkilotlar bir marta kiberhujumga uchraydi. AQShda har o'nta kompaniyaning to'qqistasida ya'ni to'qson foiz kompaniyalar kiberjinoyatlardan sug'urtalangan.

McAfee statistikasi shuni ko'rsatadiki, 2020-yilda ya'ni koronavirus avj olgan mahalda dunyo bo'ylab 16mln zararli fayllar aniqlangan bo'lib, ulardan eng katta qismi, to'g'rirog'i 1,09 mln qismi AQShdan topilgan.

Kiberxavfsizlikka nazar tashlasak, AQSh 75 mamlakat orasida 45-o'rinda turishi aniqlangan.

### **Muhokama**

O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonun sakkiz bob qirqta moddadan tashkil topgan. Qonunning 3-moddasida eng muhim atamalarga huquqiy izoh berib o'tilgan. Qonunning 2-bobida kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi Kiberxavfsizlik markazi ekanligi qonunan belgilangan. Shuningdek uning zimmasiga yuklatilgan burch va majburiyatlar, vazifalar, huquqlari batafsil keltirilgan.

So'nggi yakunlovchi bobda kiberxavfsizlikni buzganlik uchun ma'muriy hamda jinoiy javobgarlik mavjudligi belgilab o'tilgan<sup>8</sup>.

AQSh qonunchiligida ham kiberxavfsizlikka oid qonun mavjud. Unda dastlab qanday jinoyatlar kiberjinoyatlarga kirishiga oydinlik kiritiladi, shu bilan birga qaysi ko'rinishdagi kiberjinoyatga qanday jazo turi qo'llanilishi ham shu o'rinda keltirib o'tilgan. Misol uchun:

Kompyuter yoki qurilma orqali ruhsatsiz birovning kompyuteriga bostirib kirish hamda milliy xavfsizlikka xavf solib ma'lumotlar o'g'irlash, o'n yildan ko'p vaqt davomida qamoq jazosiga hukm qilinishiga sabab bo'ladi.

Aldov yo'li bilan kompyuterga buzib kirganlik uchun besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi ta'yinlanadi,

Kompyuterni qasddan yoki beparvolik sabab buzsa besh yilgacha qamoq jazosi beriladi.

<sup>8</sup> "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>



Davlatlararo yoki tashqi tijoratda ishlatiladigan kompyuterga ruxsatsiz kirish va ma'lumot olish bir yilgacha qamoq jazosi tayinlashga olib keladi.

Kiber- tovlamachilik, ya'ni boshqalardan kibermakonda turib pul talab qilish bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi berilishi belgilangan.

Bundan tashqari agar fuqaro kiberjinoyatga duch kelsa, u nimalar qilishi, kimga murojaat qilishi kerakligi necha kunda zararini qoplay olishi mumkinligi haqida ham ma'lumot berilgan. Agar ish sudga oshirilganda suddagi jarayonlar haqida va yana sug'urta qilish haqida to'xtalib o'tilgan<sup>9</sup>.

### **Xulosa**

Umuman olganda, kiberjinoyat, kiberhujumlar allaqachon jinoyatning zamonaviy ko'rinishiga aylanib ulgurgan. Texnika va texnologiya yordamida faqatgina ba'zi knopkalarni bosgan holda o'z-o'zidan bironing haqqiga, mol-mulkiga ega chiqish yoki dasturlar yordamida kompyuterni buzib kirib, hukumatga tegishli milliy ma'lumotlarni yoki biror bir korxonaga tegishli ma'lumotlarni o'g'irlash orqali boyish, hozirgi kunda o'g'rilik va jinoyatning eng oson usulidir. Yuqoridagi statistik ma'lumotlar ham O'zbekistonda hamda AQShda bu ko'rsatgichlar qanday ekanligini ko'rsatib turibdi.

Agar O'zbekiston va AQSh qonunchiligidagi farqqa e'tibor qaratsak, unda eng katta farqni sug'urtada ko'rishimiz mumkin. AQShda fuqarolar juda ko'p sohalarda, jumladan kiberjinoyatlardan ham sug'urtaga ega va bu holat ularning kiberjinoyat yoki kiberhujumga duch kelganlarida moliyaviy jihatdan o'zlarini tezroq qayta tiklab olishlariga ko'maklashadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlikni ta'minlash 2021-yil hisoboti. Toshkent, 2022. – B 9.
2. O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizlikni ta'minlash 2022-yil hisoboti. Toshkent, 2022. – B 8.

#### **Qonunlar va normativ hujjatlar**

1. Cybersecurity Laws and Regulations USA//

<https://iclg.com/practice-areas/cybersecurity-laws-and-regulations/usa>

---

<sup>9</sup> Cybersecurity Laws and Regulations USA//

<https://iclg.com/practice-areas/cybersecurity-laws-and-regulations/usa>



2. “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>

Internet manbalari

1. US Cybercrime and Cybersecurity Statistics// <https://techreport.com/statistics/us-cybercrime-cybersecurity-stats/>
2. The Top 10 Countries Most Targeted by Cyberattacks // <https://blogs.blackberry.com/en/2023/02/top-10-countries-most-targeted-by-cyberattacks-2023-report>
3. The Legal and Regulatory Aspect of International Cybercrime and Cybersecurity: Limits and Challenges// <https://digitalcommons.law.ggu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1089&context=theses>
4. Toshkentda kiberjinoyatlar soni 2 yil ichida 40 barobarga oshdi// <https://kun.uz/uz/news/2023/06/27/toshkentda-kiberjinoyatlar-soni-2-yil-ichida-40-barobarga-oshdi>